

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



**YER TUZISH ASOSLARI
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	300 000	-	Ishlab chiqarish va texnik soha
Ta'lim sohasi:	310 000	-	Muhandislik ishi
Ta'lim yo'nalishi:	5311500	-	"Geodeziya, kartografiya va kadastr" (qurilish)

Fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: **M.J.G‘ofirov** – “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar: **K.N.Xo‘jakeldiyev** – “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish” kafedrası katta o‘qituvchisi

A.Jo‘rayev — O‘zdaverloyiha instituti
“Qashvilerloyiha” bo‘linmasi loyiha bosh muhandisi:

Fann dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2022 yil _____ dagi «___» - sonli bayonnoma).

Kirish

«Yer tuzish asoslari» nazariy fan bo‘lib, unda yer tuzish obektiv jarayon sifatida paydo bo‘lganligi va jamiyat talablari asosida rivojlanishi, fanning asosiy qoidalari ochib beriladi. U yer tuzishning nazariy va uslubiy asoslarini, rivojlanish qonuniyatlarini, manbai, mazmuni, turlari, tamoyillari (prinsiplarini) yer tuzish va yer kadastrida hisobga olinadigan tabiiy va iqtisodiy omillarni, yer tuzishni rivojlanish bosqichlarini o‘rganadi.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad talabalar yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer munosabatlarini tartibga solish masalalarining turli ijtimoiy iqtisodiy farmasiyalaridagi yechilish uslublarini bilishi va yer tuzishning obektiv jarayon sifatida paydo bo‘lishi va rivojlanishining ilmiy asoslarini chuqur o‘zlashtirish va ulardan yer tuzishning amaliy masalalarini yechishda foydalana olishlari uchun ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - yer munosabatlari va yer tuzishning ilmiy rivojlanishini o‘rganishdan, ilm - fan yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslanib yer tuzishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Fan bo‘yicha talabalarining bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

«Yer tuzish asoslari» fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr :

-yer fondi va yer tizimi, yer tuzishning rivojlanish qonuniyatlari, mazmuni va vazifalarini, yer tuzishning shakllari va tamoillarini, yer tuzishda xisobga olinadigan xususiyatlari tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari. O‘zbekistonda yer tuzish va yer munosabatlarining yuzaga kelishi va davlat tomonidan tartibga solinishini ***bilishi kerak***:

-yer fondi toifalarini aniqlash bo‘yicha, yer tuzishning mazmuni va vazifalari, tamoillari, shakllari va turlarini aniqlash bo‘yicha, yer tuzishda yerning xususiyatlari, tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini hisobga olish bo‘yicha, yer munosabatlari rivojlanishining bosqichlarini farqlash bo‘yicha ko‘nikmalarga ***malakaga ega bo‘lishi kerak***.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Yer tuzish asoslari fani VIII semestrda o‘qitiladi. Bu fanni o‘zlashtirish uchun Yer kadastri, Geodeziya, Oliy geodeziya, Kartashunoslik va Ekologiya fanlaridan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rnini

Sug'oriladigan yerlardan to'g'ri foydalanish muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Halq xo'jaligining turli sohalarida yer tanlash va yer ajratib berish, ekin turlarini joylashtirish xaritalarini ishlab chiqish bugungi kun talabidir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, stendlar maketlaridan foydalaniladi. Ma'ruza, amaliy darslarida mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi

Asosiy qism

Yer munosabatlari va yerdan foydalanishning nazariy asoslari

Yer munosabatlari tushunchasi. Yer munosabatlarining rivojlanish qonuniyatlari. Yer munosabatlari va yer tuzishni rivojlantirishda davlatning o'rnini.

Feodal yer egaligi va yerdan foydalanish shakllarining vujudga kelishi va rivojlanishi

Yer egaliklari va yerdan foydalanish shakllarining vujudga kelishi. Yer munosabatlarini shariat qonunlari bilan tartibga solish. Turkiston Ros-siyaga qo'shib olingandan keyingi yer munosabatlaridagi o'zgarishlar. Revol-yusiya arafasida O'zbekistonda agrar munosabatlarning xarakteri. Yerga ega-lik, yerdan foydalanish shakllari va Qishloq xo'jaligining rivojlanishi.

1917 yildagi yer to'g'risida «Dekret» va uning O'zbekistonda amalga oshirilishi

Yer to'g'risidagi «Dekret»ga asosan O'zbekistondagi agrar o'zgarishlarning tavsifi.

O'zbekistonda 1917-27 yillarda yer - suv islohatini o'tkazishga tayyorgarlik va uni o'tkazish davrida yer munosabatlari va yer tuzish

Farg'ona vodiysi, Toshkent, Samarkand va Zarafshon viloyatlarida yer-suv islohati. 1928-1929 yillardagi agrar o'zgarishlar. Yoppasiga kollektivlashtirish sharoitida yerdan foydalanuvchilarni shakllantirish. Yerdan foydalanish huquqini beruvchi meyoriy hujjatlar, ularning mazmuni hamda ahamiyati.

Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrdagi agrar o'zgarishlar hamda yerdan foydalanuvchilarni shakllantirish

O'zbekistonda yangi yerlarni o'zlashtirish. Yangi sug'oriladigan yerlarda yer tuzishning vazifalari va mazmuni. Mirzacho'l va Markaziy Farg'onada yer tuzish bo'yicha bosh loyihalar tuzish tajribalari. Tashkil etilgan kolxozlarda yer tuzish.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlardagi yer munosabatlari va yer tuzish, 60 -80 yillardagi yer munosabatlari va yer tuzish

Kolxozlarni yiriklashtirish munosabati bilan xo'jaliklararo va xo'-jalikda ichki yer tuzish. Mirzacho'lni o'zlashtirishning Bosh chizmasi ishlab chiqilishi. 1960 - 1970 yillarda yerdan foydalanish va yer tuzish. 1967 yilda qabul kilingan «Yer kodeksi». 1970 - 1980 yillarda yerdan foydalanish va yer tuzish.

1990 yilda «Yer to'g'risidagi» qonunning qabul qilinishi natijasida yer munosabatlari va yerdan foydalanishning o'zgarishi

«Yer to'g'risida» qonun qabul qilinishining siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy zamini. «Yer to'g'risida»gi qonun mazmuni.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida yer munosabatlarini yanada takomillashtirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yer munosabatlari. Yer islohati to'g'risida tushuncha, uning mazmuni va vazifalari. Yer islohatini amalga oshirishda yer munosabatlarini isloh qilishning zarurati. Yer islohatini chuqurlashtirish uchun huquqiy asos yaratish zarurati. 1998 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi».

Yer tabiiy resurs va ishlab chikarish vositasi

Tabiat elementlari va tabiiy resurslar tushunchalari. Tabiiy mehnat qurollari, mehnat predmetlari, ishlab chiqarish vositalari va ularning ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishiga ta'siri. Tabiatning asosiy tarki-biy qismlaridan biri - yer resurslaridir. Yerning tabiiy resurs, mehnat predmeti va mehnat quroli sifatida o'ziga xos xususiyatlari. Yer resurs-laridan samarali, oqilona va ekologik jihatdan xavfsiz foydalanish zarurati. Foydalanish usullariga va oqibatlariga qarab tabiiy resurslar-ning turlarga bo'linishi: tugaydigan (qayta tiklanadigan va tiklanmaydigan) va tugamaydigan resurslar. Yerning ishlab chiqarish vositasi ekanligi to'g'risidagi ma'lumot. Uning ishlab chiqarish vositasi hisoblanishi. Yer-ning ishlab chiqarish vositasi sifatida boshqa ishlab chiqarish vositalari-dan farqi. Yer bilan ajralmas bog'langan ishlab chiqarish vositalari. Yerdan xalq xo'jaligi tarmoqlarida foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.

Suv - sug'orma dehqonchilikda asosiy ishlab chiqarish vositasi

Suv yerning ajralmas bo'lagi, tabiiy resurs va ishlab chiqarishning umumiy zaruriy sharti. Ishlab chiqarish jarayonida suvning mehnat predmeti va odam uning yordamida Qishloq xo'jaligi ekinlarini o'stirib, hosil oladi-gan tabiiy mehnat quroliga aylanishi. Uning insoniyat moddiy faoliyati-ning hamma sohalarida shu tarmoqning xususiyatlariga mos keladigan har xil shakllarda qatnashishi. Suvning xalq xo'jaligi tarmoqlarida bajara-digan vazifalari. Sug'orma dehqonchilikda suv yer bilan birga ishlab chiqarish jarayonining ichki elementi bo'lib, tabiiy moddiy ishlab chiqarish vositasiga aylanadi. Ishlab chiqarish vositasi sifatida suvning uni boshqa ishlab chiqarish vositalaridan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlari. Sug'orma dehqonchilik mintaqalarida yerdan va suvdan samarali foydalanishni tashkil qilish masalalarining birgalikda hal qilinishi zarurligi.

Yer tuzumi va yer islohati

Yer munosabatlari va ijtimoiy munosabatlar tushunchalari. Yerlarni taqsimlash, har xil turdagi yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarni vujudga keltirish, mustahkamlash, yiriklashtirish (maydalash) va tugatish. Jamiyatning yer tuzumi tushunchasi, xo'jalik yuritish turlari va ularga mos mulkchilik turlari tizimi. Yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar. Hudud tushunchasi va uni tavsiflashda ishlatiladigan sifat belgilari. Hududni tashkil qilish. Ijtimoiy ishlab chiqarishda yer tuzish va uning ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha hisoblanishi. Yer tuzishning maqsadi aniq iqtisodiy natijaga erishishdir. Iqtisodiy va yer islohatlari tushunchalari. Bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun davlatimizda o'tkazilayotgan agrar va yer islohotlarining mohiyati. O'zbekistonning hozirgi yer tuzumining o'ziga xos xususiyatlari.

Yer resurslari va ulardan foydalanish

Respublika yer fondi to'g'risida tushuncha. Yer fondi toifalari va turlari. Yerdan oqilona foydalanish tushunchasi. Yerdan samarali foydalanish va uning unumdorligini oshirish; yerning sifatini yaxshilash uchun maxsus tadbirlar o'tkazish; Qishloq, xo'jalik yerlaridan intensiv foydalanish; Qishloq xo'jaligi uchun yangi yerlarni o'zlashtirish; tuproq, eroziyasiga qarshi kurashish; yerni xo'jasizlarcha foydalanishdan va sifati pasayishidan muhofaza qilish; Yerni muhofaza qilish tushunchasi. Yerdan oqilona foydalanishni va muhofaza qilishni tashkil qilish yer tuzishning asosiy vazifasi ekanligi va bu ishlarning ilmiy asoslangan yer tuzish loyihalari yordamida amalga oshirilishi. Yerning sifatini yaxshilash va undan intensiv foydalanish bilan bir qatorda Qishloq xo'jaligi uchun yangi yerlarni o'zlashtirish va buzilgan yerlarni tiklashning ahamiyati. Yerni muhofaza qilish bo'yicha huquqiy tadbirlar.

Yer tuzishning rivojlanish qonuniyatlari

Yer tuzish jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlariga va ishlab chiqarishning doimiy o'zgarib turuvchi sharoitiga moslab yerdan foydalanishni tashkil qiladigan hamda hududlarni tuzish bilan shug'ullanadigan obektiv rivojlanib boradigan jarayon ekanligi. Yer tuzishning asosiy rivojlanish qonuniyatlari. Yer tuzish barcha ijtimoiy ishlab chiqarish usullarining tarkibiy qismidir. Yer tuzishning davlat maqomi to'g'risida. Vatanimiz xalq xo'jaligining rivojlanish bosqichlari yer tuzishning ham rivojlanish bosqichlaridir.

Yer tuzish tushunchasi, mazmuni va vazifasi

Yer tuzish tushunchasi, uning murakkab va har xil turdagi davlat tadbirlari tizimi ekanligi. Yer to'g'risidagi qonunga asosan yer tuzishning umumiy va aniq vazifalari, mohiyati, iqtisodiy ma'nosi, huquqiy, ekologik va texnik asoslari hamda umumiy tarkibi. Yer tuzishda yer kadastr va yerdan foydalanishga aloqador boshqa tadbirlar natijalari va ma'lumotlaridan foydalanish.

Yer tuzish turlari va tamoyillari (prinsiplari)

Yer tuzishning turlari. Ularning bir biridan farqi va o'xshashligi. Xo'jaliklararo yer tuzishning maqsadi, vazifalari va mazmuni. Qishloq xo'jaligida va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida o'tkaziladigan xo'jaliklararo yer tuzishning maqsadi, vazifalari va mazmuni. Har xil min-taqalarda joylashgan va har xil ixtisoslikdagi xo'jaliklar hududlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Yer tuzish tamoyillari tushunchasi. Yer tuzishning asosiy tamoyillari, ularning mazmuni va ahamiyati.

Yer tuzishda hisobga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar

Iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar tushunchasi. Iqtisodiy sharoitlar-ning yer tuzishga ta'siri va ularni hisobga olish usullari. Yer tuzishda hisobga olinadigan iqtisodiy omillar. Yer tuzishda hisobga olinadigan ijtimoiy sharoitlar tarkibi va ularning yerdan foydalanishni hamda ishlab chiqarishni tashkil etishga ta'siri. Yer tuzish samaradorligi turlari. Yer tuzishni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan asoslash zarurati. Yer tuzish loyihalarini asoslashda foydalaniladigan iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar tizimi.

Yer tuzish tizimi

Mamalakatimiz yer tuzish tizimi tarkibi va vazifalari. Yer tuzish chizmasi (sxemasi), loyihasi va ishchi loyihasi tushunchalari. Ularning bir-birlaridan farqi, orasidagi bog'liqligi va bajaradigan vazifalari. Yer tuzish loyihalarini ishlashda amal qilinadigan asosiy tamoyillar. Yer tuzish jarayonida bajariladigan ishlar. Yer tuzish loyihalarining asosiy tarkibiy qismlari. Loyiha hujjatlari tarkibi. Loyihani

hayotga tadbqiq qilish va mualliflik nazorati. Yer tuzish xizmati tarkibi va bajaradigan vazifalari. Yer tuzish bo'yicha davlat loyiha instituti tuzilishi va bajaradigan ishlari.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar yer tuzishning tarixiy va nazariy asoslarini o'rganadilar:

1. Yer munosabatlari va yerdan foydalanishning nazariy asoslari. Feodal yer egaligi va yerdan foydalanish shakllarining vujudga kelishi va rivojlanishi.
2. Oktabr inqilobi arafasida O'zbekistonda yer munosabatlari shakllanishi. Yer to'g'risidagi 1917 yil Oktabr oyida qabul qilingan «Dekret» va uning O'zbekistonda amalga oshirilishi.
3. O'zbekistonda 1917-1927 y. yer - suv islohatini o'tkazishga tayyorgarlik va uni o'tkazish davrida yer munosabatlari va yer tuzish.
4. Ikkinchi jahon urushigacha va undan keyingi davrdagi agrar o'zgarishlar hamda yerdan foydalanuvchilarni shakllantirish.
5. O'zbekistonda 1967 yilda qabul qilingan «Yer kodeksi», «Yer to'g'risida»gi (1990 y.) qonunning qabul qilinishi natijasida yer munosabatlari va yerdan foydallanishning o'zgarishi.
6. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yer munosabatlarini yanada takomillashtirish.
7. Yer tabiiy resurs va ishlab chiqarish vositasi.
8. Suv - sug'orma dehqonchilikda asosiy ishlab chiqarish vositasi.
9. Yer tuzumi va yer islohati.
10. Yer resurslari va ulardan foydalanish.
11. Yer tuzishning tarixiy tajribasi va undan foydalanish.
12. Yer tuzishning rivojlanish qonuniyatlari.
13. Yer tuzish tushunchasi, mazmuni va vazifasi.
14. Yer tuzish turlari va tamoyillari.
15. Yerning yer tuzishda hisobga olinadigan xususiyatlari va xududning tabiiy sharoiti.
16. Yer tuzishda hisobga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar.
17. Yer tuzish tizimi.
18. Yer tuzish fani va uning rivojlanishi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqildi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini

o'shinish, mavzular bo'yicha referatlar, ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarining mavzulari:

1. O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi».
2. O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaliklari to'g'risida» gi qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» gi qonuni.

Dasturning- informasion uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy usullari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo'llanilishi ko'zda tutilgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida yer munosabatlarini yanada takomillashtirish; yer tabiiy resurs va ishlab chiqarish vositasi, suv- sug'orima dehqonchilikda asosiy ishlab chiqarish vositasi, yer tuzumi va yer islohati, yer resurslari va ulardan foydalanish.

Yer tuzishning rivojlanish qonuniyatlari, yer tuzish tushunchasi, mazmuni va vazifasi, yer tuzish turlari va tamoyillari (prinsiplari), yerning yer tuzishda olinadigan xususiyatlari va hududning tabiiy sharoiti, yer tuzishda hisobga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari, yer tuzish tizimi, yer tuzish fani va uning rivojlanishi ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasion va elektron–didaktik texnologiyalardan foydalanish.

Yer munosabatlari va yerdan foydalanishning nazariy asoslari.

Feodal yer egaligi va yerdan foydalanish shakllarining vujudga kelishi va rivojlanishi, yer to'g'risidagi 1917 yil Oktabr oyida qabul kilingan «Dekret» va uning O'zbekistonda amalga oshirilishi.

Yer-suv islohatini o'tkazishga tayyorgarlik va uni o'tkazish davrida yer munosabatlari va yer tuzish. Ikkinchi jaxon urushigacha va undan keyingi davridagi agrar o'zgarishlar hamda yerdan foydalanuvchilarni shakllantirish.

O'zbekistonda 1967 yilda qabul kilingan «Yer kodeksi», «Yer to'g'risidagi» gi (1990 y) qonunning qabul qilinishi natijasida yer munosabatlari va yerdan foydalanishning o'zgarishi mavzularida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Avezboyev S, Volkov S.N. «Yer tuzishning ilmiy asoslari».-T Yangi asr avlodi», 2002 y
2. Avezboyev S., Karaboyeva T. «Yer tuzish» T.- «ToshDAU» 2005.
3. Tolipov G.A. va boshqa. - «O'zbekiston Respublikasi yer kadastri». - T. 1994
4. Yer tuzish asoslari (ma'ruza matnlari) Q. QarMII 2018 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Avezbayev S, Troiskiy V.P.Yer tuzishning ilmiy asoslari (uslubiy qullanma) - Toshkent TIIMSX, 1996-70 b
6. www.ziynet.uz;
7. www.lex.uz
8. www.bilim.uz

